

TEMPERAMENT VA U HAQIDA TUSHUNCHALAR NAZARIYASI

Soatova Rayxona Sadriiddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va san'at fakulteti
Pedagogika yo'nalishi talabasi
[*rayhonasoatova@gmail.com*](mailto:rayhonasoatova@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada insonning individual xusiyatlaridan biri bo'lgan temperament va u haqidagi tushuncha, ma'lumot, nazariyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Temperament, individuallik, xolerik, sangvinik, melankolik, flegmatik.

Abstract: In this article, temperament, which is one of the individual characteristics of a person, and the concept, information, and theories about it are presented.

Key words: Temperament, individuality, choleric, sanguine, melancholic, phlegmatic.

Аннотация: В данной статье представлены темперамент, который является одной из индивидуальных характеристик человека, а также понятие, сведения и теории о нем.

Ключевые слова: Темперамент, индивидуальность, холерик, сангвиник, меланхолик, флегматик.

Har bir inson o'ziga xos takrorlanmasdir, shu sababli har bir shaxs o'z xususiyatlari, qobiliyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Misol uchun, bir xil temperamentli insonlarda qobiliyatlari turlicha va xarakterlari ham har xil bo'lishi mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi, "Temperament nima?".

Temperament — shaxs faoliyatining individual xususiyatlari, ya'ni alohida psixik jarayon va holatidagi tempi, ritmi, intensivligi tavsifi, fiziologik jihatdan nerv sistemasi faoliyatining tiplariga bog'liq. Bu kishidagi hissiyotning qo'zg'alishi va uning umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladi. Har qaysi kishidagi hissiyotning qo'zg'alish tezligi, kuchi va barqarorligi har xil. Bu organizmning atrof muhit ta'siriga javoban ko'rsatadigan ixtiyorsiz reaksiyalarida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining imo-ishoralari (mimikasi)da ifodalanadi. Kishi hissiyotining bunday qo'zg'aluvchanlik xususiyatlari diqqatyaing kuchi va barqarorligida, iroda sifatlarida, aqliy jarayonlar, jumladan, nutq tezligida aks etadi. Ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab kishilar sustkash, lapashang yoki

tezkor, betoqat, serg'ayrat kabi sifatlarga ajratiladi. Shu xildagi individual xususiyatlardan kishining mizoji tarkib topadi.¹

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, temperament haqidagi ta'limotni birinchi bo'lib yunon olimi Gippokrat yaratgan. U temperamentning mohiyati va temperament tiplarining nomlarini asoslashga harakat qilib, o'tkazgan tadqiqotlari asosida temperamentga xos xususiyatlarni tizimga solib, quyidagicha turlarga ajratgan: sangvinik, xolerik, melankolik, flegmatik. Ularning har birini alohida-alohida tavsiflab bergan.

Ammo hamma odamlarni shu to'rt xil asosiy temperamentlarga ko'ra ajratish mumkin deb o'ylash xato fikrdir. Faqat ba'zilariga bu tiplarning sof vakillari bo'lib hisoblanadi; ko'pchilik odamlarda esa temperamentlarning aralash tiplarini kuzatamiz.

SHuni ta'kidlash lozimki, temperament insonning qobiliyatligini va iste'dodini belgilamaydi. Ko'zga ko'ringan iste'dod egalaridan faoliyatning turli sohalarida turlicha temperament sohiblarini topish mumkin. Masalan, A.S. Pushkin – xolerik, A.I. Gersen – sangvinik, N.V. Gogol va V.A. Jukovskiy – melankoliklar, I.A. Krilov va I.A. Goncharov – flegmatiklar.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mizoj>



Xolerik

Juda g'ayratli, ishga ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez va shiddatli, qizg'in emotsional "portlash" va kayfiyatning keskin o'zgarishlariga moyil, ildant harakatlar qiladigan inson xolerik deb ataladi



Sangvinik

Sezgilari psixik faollikka ega bo'lgan, atrofda bo'layotgan vazifalarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarni hadeb o'zgartirishga intiluvchi, ko'ngilsizliklarni yengil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo'lgan insonlarga sangvinik deyiladi.



Flegmatik

Yuragi keng, barqaror intilishlarga va doimiy his-tuyg'ularga ega, harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holatini tashqi tomondan ifoda etmaydigan inson flegmatik deb ataladi



Melanxolik

Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan va sekin ovoz chiqaradigan insonlar melanxoliklar deb ataladi.

Temperamentga xos bo'lgan xususiyatlarni kishi o'z irodasi, istagi bilan o'zi o'stira oladi, birmuncha yo'qota yoki o'zgartira oladi. Kishi temperamenti xususiyatlaridagi bunday o'zgarishlar kishining shaxsiy istagi bilangina vujudga kelib qolmay, balki, kishining hayot tajribasi jarayonida, tevarak-atrofdagi muhit ta'siri, asosan tarbiya ta'siri ostida ham vujudga keladi. Nerv faoliyatining o'zi qandaydir o'zgarmaydigan bir narsa emasligini I.P. Pavlov takror-takror uqtirib o'tgan. U nerv sistemasining faoliyati «turmush beradigan tarbiya ta'siri bilan» o'zgarishi mumkin va

bir shaklga kirgan nerv faoliyati faqat tug'ma nerv sistema tipi bilangina belgilanmasdan, balki organizm hayotining butun tarixi bilan ham belgilanadi, deb hisobladi.²

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko'rinadigan individual xususiyatdir. Psixologik tadqiqotlar va pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatib beradiki, temperament tiplari turmush sharoiti, ijtimoiy muhit, tabiat ta'siri natijasida o'zgarishi mumkin. Inson o'z-o'zini tarbiyalash natijasida temperament xususiyatlarini o'zgartirish qobiliyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya. Darslik. T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018-y.
2. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2018. - 272 b.
3. Xudoyberdiyeva Baxtigu. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TEMPERAMENT TIPLARI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume 27 Issue 1, 16-18-betlar.
4. https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/103002/17.mavzu.Temperament_va_harakter.htm
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mizoj>

² P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya. Darslik. T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018-y.